

Zokir SODIKOV,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

kafedra mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

IQTISODIY RIVOJLANISH VA UNDA XIZMATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish va jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash uchun chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni izchil isloh qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish va tarkibiy jihatdan takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlari barqaror va muttasil ravishda rivojlantirilib kelinmoqda. Davlatimizda rivojlanish strategiyasining oqilona ishlab chiqilgani, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish maqsadida belgilangan vazifalarning izchilligi erishilayotgan katta yutuq va marralarga zamin yaratmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni alohida ahamiyat¹ kasb etadi.

Bugungi kunda barqaror va samarali iqtisodiyotni barpo qilish maqsadida istiqloldan so'ng amalga oshirib kelinayotgan islohotlar

o'zining mevasini bermoqda. Ayniqsa, juda qisqa vaqtda iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishning ta'minlanishi, ishlab chiqarishda chuqur tarkibiy takomillashuvni amalga oshirilishi va barcha tarmoqlarda izchil rivojlanishni yo'lga qo'yilishi, jahon bozori talablariga mos keladigan samarali tashqi savdo, xususan, tashqi savdoni jadal kengayishi va texnologik jihatdan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar salmog'ining ortishiga urg'u berish, xorijiy investitsiyalar o'zlashtirishni kuchaytirish va unda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushining ortishiga erishish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, sanoat va xizmat sektorlarini rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini rivojlantirish va mustahkamlash, kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga erishish beqiyos yutuqlar va ahamiyatli natijalardir. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va ahamiyati muntazam ravishda ortmoqda. Hozirda mamlakatlarning taraqqiyoti mazmunan va shaklan oldingi davrlardagi rivojlanishdan farq qiladi va murakkab xarakterga ega. Ilm-fan yutuqlarining, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasidagi yuksalishning amaliyotga keng joriy etilishi va beqiyos samarasi iqtisodiyotlarning integratsiyalashuviga va shiddat bilan globalashuviga mustahkam asos bo'lmoqda. Bu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (2017 yil 7 fevral, PF-4947-son): – T.: Adolat, 2018. 26 - bet.

jarayon jahonda o'zaro raqobatning barcha sohalarida murakkablashuviga va keskinlashuviga, alohida mamlakatlarning esa xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki va o'z salohiyatini mustahkamlash borasidagi kurashining yanada shiddatli tarzda avj olishiga turtki bo'lmoqda. Bundan iqtisodiyotlar globallashuvning ijobiy yutuqlar bilan birga muammoli va ziddiyatli vaziyatlarga sabab bo'lishini ham inobatga olish zarur bo'lmoqda.

Barcha mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va taraqqiyotning xilma-xilligi, sarmoya va texnologiya borasidagi imkoniyatlarining nomutanosibligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarning kuchayishi, davlatlarning aholi potentsiali va ijtimoiy-madaniy turmush tarzidagi katta tafovutlar va boshqa omillar jahon miqyosida yaxlit tizimning vujudga kelishiga va uning barqaror rivojlanishiga xalaqit beradi. Shuningdek, globallashuv jarayonlarining yana bir nozik qirrasini – bu biror bir mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy buhron va tangliklarning tabiiy ravishda qolgan mamlakatlarga ham kuchli salbiy ta'sirining yaqqol kuzatilishidir. Jahon hamjamiyati hozirda boshidan kechirayotgan global inqirozlar va ularning ko'pgina davlatlarga jiddiy salbiy ta'siri aynan globallashuv jarayonlarining hosilasidir. Bulardan iqtisodiyotlar globallashuv jarayonlarida ishtirok etishi manfaatli emas degan xulosaga borish to'g'ri emas. Chunki, hech bir mamlakat bugun mahdudlikka asoslangan milliy iqtisodiyotni shakllantirib, ko'zlangan taraqqiyotga erishishi imkonsiz. Demak, mamlakatlar globallashuv jarayonlarining yutuqlaridan manfaat ko'rishga va uning muammolaridan himoyalashga xizmat qiladigan ratsional strategiyalarni ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikada rivojlanishning joriy va istiqboldagi tadbirlarini belgilashda dunyo iqtisodiyotida kutilayotgan ijobiy tendensiyalar bilan birga ziddiyatlarning ta'siri ham har tomonlama hisobga olinib, rivojlanish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu milliy iqtisodiyotning global bozorda kuzatilayotgan muammolar va salbiy vaziyatlardan muhofaza qilishga zamin yaratmoqda.

Milliy iqtisodiyotning xalqaro tus olishi va fan-texnika taraqqiyoti hozirgi iqtisodiy aloqalarning turlari, shakl va tarkibiy tuzilishlariga

jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, hozirgi kunda tashqi savdoning o'sish sur'atlari jahonda yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'atlaridan yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, XX asrning ilk o'n yilligi mobaynida jahonda yalpi ishlab chiqarish hajmi qariyb, ikki barobarga o'sgan bo'lsa, jahon tovar eksportining o'sish sur'ati 2,36 barobarga, jahon xizmat eksportining o'sish sur'ati 2,48 barobarga tengligi² qayd qilinmoqda. Bugungi sharoitda jahon xo'jaligida xalqaro xizmatlar savdosi obyektiv jarayon bo'lib, o'z mohiyati jihatidan davlatlararo sarmoya, ishchi kuchi va xizmatlar oqimining kengayib borishi bilan asoslanadi.

Ma'lumki, XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida jahon iqtisodiyotining faol rivojlanishida zamonaviy xalqaro xizmatlar savdosining ahamiyati beqiyos bo'lib, u xalqaro iqtisodiy jarayonda milliy xo'jaliklarning baynalmilallashuvi rivojlanishidagi yangi bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahonda XX asrning oxirgi choragidan boshlab iqtisodiy globallashuv bilan birgalikda xizmatlar eksportining rivojlanishi jadal tus olgan va bunda bozorlarning izchil kengayib borishi ham alohida o'rin tutmoqda. Mazkur tendensiya asosan vujudga kelgan integratsion guruhlar, bojxona, savdo, iqtisodiy ittifoqlar va boshqa shu kabilar hisobiga faol shaklda namoyon bo'lmoqda. Zero, integratsiya tufayli milliy xo'jaliklar o'rtasidagi ma'muriy, iqtisodiy va boshqa to'siqlar qisqartirilmoqda va hatto ayrim mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy cheklovlar batamom bartaraf qilinmoqda. Shu bois yildan-yilga jahon savdosida xizmatlar ulushi jadal ortib bormoqda.

Hozirgi kunda jahon jami eksportining 20 foizdan ortig'i xizmat eksportiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, xalqaro xizmatlar savdosida intellektual mahsulotlarining ulushi muttasil ortib bormoqda va unda jahondagi ayrim mamlakatlar, jumladan, AQSh, Yaponiya, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Xalqaro bozorda xizmatlar savdosi GATS (GATS -General Agreement on Trade Services-Xizmat savdosi bo'yicha Bosh Bitim) tashkiloti o'z faoliyatini boshlagandan so'ng tarkibiy takomillashuv jarayoni jadal suratda kengayib bormoqda. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar ham xizmatlar sohasi bo'yicha o'z tasniflarini ishlab chiqadi. Jumladan, BMT

² The World Bank, WDI-2012, 214 – 241.

tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra, xalqaro miqyosda harakatlanuvchi xizmatlar turi 160 ta bo'lib, ular 12 asosiy guruhga ajratilgan. Jahonda xizmatlar savdosi ichida transport xizmati boshqa xizmat turlariga qaraganda yuqori sur'atlarda o'sayotgan xizmat turi hisoblandi va uning xalqaro xizmatlar eksportidagi ulushi, UNCTAD bergan ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda o'rtacha 20-22 foizni, importidagi ulushi 26 – 28 foizni tashkil etmoqda. Chunki bu xizmat turining rivojlanishi o'zaro tovarlar savdosining rivojlanishiga ham bog'liqdir.

Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ham XX asrning oxirgi o'n yilligidan jadal rivojlana boshladi va bu borada avval rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qilgan bo'lsa, XXI asrga kelib rivojlanayotgan va o'tish bosqichidagi davlatlar rivojlangan davlatlarga qaraganda asosiy ulushga ega bo'lib bormoqda. Jahonda xizmatlar savdosi har 7-8 yilda o'rtacha ikki barobarga ortmoqda va hozirgi kunda yillik 4,5-5,0 trln AQSh dollaridan ziyodni tashkil qilmoqda. Bunga asosiy sabab barcha turdagi xizmatlarning takomillashib borishi va tashqi bozordagi hissasining kengayishi bilan xarakterlanadi. Integratsion tuzilma sifatida Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotida ham xizmatlar eksporti 2012-2015 yillarda o'rtacha 28,1 foiz bo'lgan. Ammo, 2016-yildagi 27,8 foiz ko'rsatkichdan avval 2017-yil 30 foizgacha oshgan. Xizmatlar importi esa umumiy importning mos yillarda 22,2 foiz va 24,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yil yuqori ulushga, ya'ni 25,7 foizga yetdi. Ammo 2017-yilda Yevropa Ittifoqida jahondagi inqirozlar bilan bog'liq vujudga kelgan muammolar xizmatlar importiga ham sezilarli ta'sir etdi va umumiy importdagi ulushi 23,4 foizga tushib ketishiga olib³ keldi. 2016-yilga kelib Xitoy va Hindiston davlatlari xizmatlar sohasi eksporti va importi bo'yicha sezilarli darajada ilgarilab ketdi. Yevropa Ittifoqi va AQSh mos ravishda 24,4 foiz va 18,5 foiz ulushga ega bo'lgan bo'lsa, Xitoy 6,1 foiz, Yaponiya 4,9 foiz va Hindiston 4,4 foiz hissa bilan jahonda xizmatlar savdosida ishtirok etmoqda. Xalqaro xizmatlar savdosida o'tgan asrning oxirlarida ham yetarli darajada faol bo'lmagan konsalting xizmati 2000-yildan boshlab o'z faoliyat sohasini jadal kengaytira boshladi.

³ Eurostat International trade in services.

Hozirda konsultantlar boshqaruv, buxgalteriya, ekologik masalalar, texnologiya, huquqshunoslik, marketing, favqulodda boshqaruv, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha, tibbiyot, moliya, iqtisodiyot, kommunikatsiya va muhandislik kabi kasbiy mahorat va aqliy salohiyat talab etadigan xizmatlarni ko'rsatish bilan keng ko'lamda shug'ullanmoqda. Bu keltirib o'tilgan xizmatlar yangi sohalar vujudga kelishi bilan yana ham kengayishi va rivojlanishi mumkin. Chunki xizmatlar bilan ta'minlovchilarning o'zi boshqa turdagi xizmatlarni iste'molchilari hisoblanadi. Xususan, turizm, havo transporti, telefon xizmati, internet xizmati va boshqa shu kabilar biznes xizmati ta'minotchilarining ehtiyoji uzluksiz tushib turadigan xizmat turlari hisoblanadi.

Mazkur imkoniyatdan unumli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoni va boshqa huquqiy-tashkiliy asoslar yaratilib, jadal faoliyat yo'lga qo'yildi. Jumladan, ushbu farmonning 1-ilovasida mamlakatimizda "2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish **KONSEPSIYASI**" tasdiqlanib, ijro qilish uchun amaliyotga kiritilgani ham olib borilayotgan faoliyatning miqyosini ko'rsatadi⁴. Qolaversa, integratsion hududlarda yuqorida keltirilgan xizmatlarning ko'pchiligi xalqaro xarakterga ega.

Ma'lumki, banklar ham, o'tmishda faqat kredit berish va depositlar qabul qilish xizmati bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirda turli-tuman yordamlar ko'rsatish, xalqaro valyuta ayirbosh qilishni qulaylashtirish, valyuta o'tkazmalarini amalga oshirish, hatto, muayyan statistik ma'lumotlarni taqdim qilish kabi xizmatlarni bajarmoqda. Ayniqsa, xalqaro va mintaqalararo banklar ko'rsatiladigan xizmatlar turini va sifatini oshirish bo'yicha namunali faoliyat olib boradi. Hozirda biznes faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan banklar boshqa turdagi banklarga qaraganda xalqaro xarakterga egaligi aniq. Jahondagi xalqaro savdo-iqtisodiy jarayonlarda Yevropa Ittifoqi banklarining ulushi 56 foiz bilan birinchi o'rinni, Osiyo banklari 14 foiz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoni.

bilan ikkinchi o'rinni, AQSh banklari esa 13 foiz hissa bilan uchunchi o'rinni egallab kelmoqda va boshqa qolgan mamlakatlar banklarining ulush 17 foizni tashkil etmoqda. Yaqin yillargacha unchalik katta ulushga ega bo'lmagan Osiyo banklari hozirda AQSh banklarini ham ortda qoldirib jahon miqyosida ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Ta'lim sohasida ham xalqaro miqyosda xizmat ko'rsatish taraqqiyotning muhim belgilaridan hisoblanadi. Internet tizimi rivojlanishi natijasida on-line tizimida o'qitish xizmati bu sohani yanada takomillashtirdi. Bir mamlakat hududida turib ham xorijdagi talabalarga dars berish ma'lum fanlar bo'yicha professional mutaxassislar mavjud bo'lmagan mamlakatlarga qulay imkoniyatlarni keltirib chiqardi.

Hozirgi kunda dunyodagi ko'pchilik davlatlar milliy iqtisodiyotida xizmatlar sohasi sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslariga nisbatan yuqori ulushga ega. Ammo eksport miqdorida xizmatlar hissasi tovarlarga nisbatan kam. Xizmatlar eksporti iqtisodiyoti barqaror davlatlarda yuqoriroq hisoblanadi. Xalqaro xizmatlar savdosi bo'yicha sug'urta sohasida ham katta o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Dastlab mol-mulk sug'urtasi, hayot sug'urtasi kabi sanoqli turlarda faoliyat ko'rsatgan bu xizmat turi, hozirda yuqori darajada diversifikatsiyalashib bormoqda. Jahondagi inqirozlar tufayli AQShning biznes doiralari ko'rgan zararning asosiy qismi xalqaro sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplanib kelmoqda.

Hozirda sayohat sug'urtasi, foiz stavkasi sug'urtasi, ta'lim sug'urtasi va mualliflik huquqi sug'urtasi kabi yangi turdagi sug'urta xizmatlari taklif etilmoqda. Globallashtirish jarayoni chuqurlashib borayotgan sharoitda iqtisodiyot ilmida yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sektori salmog'ining ortishi va qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim belgisi hisoblanadi. Aynan OECD mamlakatlarida xizmatlar sohasi iqtisodiyotning 2/3 qismidan ziyodini tashkil etishi yuqoridagi nazariyani tasdiqlaydi. Ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ayrim xizmat turlari bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar hozirda GATS tomonidan ishlab chiqilgan 4 taklif modalari orqali amalga oshirilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmat turi birinchidan, internet orqali ma'lum taklif va ko'rsatmalar berish, ikkinchidan, xorijlik bemorlar

kelganda, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, uchinchidan, agar yuqori salohiyatli yuridik shaxs ko'rinishida bo'lsa, chet elda o'zining filiallarini tashkil etish, to'rtinchidan, chet elga qisqa muddatga borib, tibbiy yordam ko'rsatish orqali o'z xizmatlarini taklif qilishi mumkin. Bular xalqaro xizmatlar savdosining kengayishi va takomillashuvidagi muhim yutuqlardan hisoblanadi.

Ayni paytda vaqt o'tishi bilan ayrim xizmat turlarining salmog'i boshqa xizmat turlariga qaraganda, qisqarib borishi tabiiy holdir. Shuningdek, oldin kam ulushga ega bo'lgan xizmat turlari vaqt o'tishi bilan rivojlanib, takomillashuv hisobiga xizmat sektorida yuqori salmoqqa ega bo'lishi mumkin. Aynan, ba'zi xizmat turlari takomillashuvi natijasida bu soha bo'yicha yetakchilik bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'tib bormoqda. Xususan, XX asr oxirlarida bank va moliyaviy xizmatlar (sug'urtadan tashqari) sohasida yetakchilik Fransiyaga xos bo'lsa, hozirda bu borada AQSh banklari peshqadamlik qilib kelmoqda. GATS tashkiloti xalqaro integratsion jarayonning muhim hosilalaridan biri bo'lib, xalqaro xizmatlar savdosini rivojlanishida eng asosiy omil hisoblanadi. Chunki, bu tuzilma tomonidan davlatlar manfaatiga mos keladigan zaruriy me'yorlar va tamoyillar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Natijada nafaqat rivojlangan, balki, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham xizmatlar savdosining rivojlanishi jadallashib, rivojlanib bormoqda. Masalan, XXI asrning ilk o'n yilligi mobaynida jahon tovar eksportining o'sish sur'ati 2,36 barobarga teng bo'lgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarniki shu ko'rsatkich bo'yicha keltirilgan davrda 3,6 barobarni tashkil etgan. Shuningdek, yuqorida keltirilgan davrda jahon xizmat eksportining o'sish sur'ati 2,48 barobarga tengligi⁵ qayd qilingan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda shu ko'rsatkich bo'yicha keltirilgan davrda 3,5 barobarga teng bo'lgan. Jahonda iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlari qatori xalqaro xizmatlar savdosini izchil rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda va bu borada xalqaro me'yorlar, tashkiliy asoslar va shart-sharoitlar shakillantirib borilmoqda. Har bir mamlakat bu imkoniyatlardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

⁵ The World Bank, WDI-2012, 214-241.